

**Maqom san'atining "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari",  
"Buxoro Shashmaqomi" respublika ko'rik-tanlovlari hamda "Xorazm  
maqomlari" V respublika televizion ko'rik-tanlovini tashkil etish  
va o'tkazish tartibi to'g'risida  
NIZOM**

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-13-may kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlisda berilgan topshiriqlar bo'yicha 43-sonli yig'ilish bayoniga muvofiq, "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari", "Buxoro Shashmaqomi" respublika ko'rik-tanlovlari hamda "Xorazm maqomlari" V respublika televizion ko'rik-tanlovi (bundan buyon matnda tanlovlar deb yuritiladi)ni tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Tanlovlar har ikki yilda bir marotaba respublikadagi madaniyat va san'at ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari, o'qituvchilari, madaniyat markazlari, maqom markazlari va uning hududiy bo'limlari, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi va O'zbekiston davlat filarmoniyasining xonanda va sozandalari ishtirokida ikki bosqichda o'tkaziladi:

**birinchi bosqich** - Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida;

**ikkinchi bosqich** - respublika miqyosida.

2. Tanlovlarda qatnashish uchun uning shartlariga munosib ishtirokchilarni tavsiya etish yuzasidan mas'uliyat Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat vaziri, viloyatlar madaniyat boshqarmalari va Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi boshliqlari zimmasiga yuklatiladi.

3. Tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha chora-tadbirlar, tanlovlarning barcha bosqichlarini o'tkazish tashkiliy qo'mita (bundan buyon matnda tashkiliy qo'mita deb yuritiladi) tomonidan muvofiqlashtiriladi.

**2-bob. Tanlovlarning maqsadlari**

4. Tanlovlarning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

o'zbek milliy maqom san'atining barcha yo'llarini keng targ'ib etish;

milliy maqom san'ati bo'yicha ijod qilib kelayotgan ijrochilarni qo'llab-quvvatlash;

mohir maqom ijrochilarini kashf etish;

o'zbek maqom ijrochiligini yuksak darajaga ko'tarish, milliy san'atimizni dunyo sahnalariga olib chiqish, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish hamda ularning ijodini keng ommaga targ'ib qilish;

o'zbek maqom ijro imkoniyatlarini oshirish va ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan yoshlarni tanishtirish.

### **3-bob. Tanlovlarda ishtirok etish tartibi**

5. Tanlovlarning respublika yakuniy bosqichida ishtirok etish uchun vazirlikning Ta'lim muassasalari va sohani metodologik ta'minlash boshqarmasiga hududiy bosqich yakunlanganidan so'ng bir hafta muddatda quyidagi hujjatlar topshiriladi:

- a) nomzodning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi (pasport) nusxasi;
- b) nomzodga berilgan ijodiy tavsifnoma;
- v) 4 dona (2 dona 3 x 4 sm hajmda va 2 dona 9 x 12 sm hajmda) rangli fotosurat;
- g) nomzodning tanlovda ishtirok etish uchun ijro dasturi.

6. Muddatidan kechikib topshirilgan hujjatlar qabul qilinmaydi.

7. Asarlar yoddan ijro etiladi.

8. Ishtirokchilarning tanlovlar davomidagi ketma-ket ijro etishlari lotin alifbosi bo'yicha amalga oshiriladi va ushbu tartib tanlovlar oxirigacha saqlab qolinadi.

### **4-bob. Tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish shartlari**

9. Tanlovlarda 15 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan ijrochilar ishtirok etadilar.

10. Tanlovlar quyidagi yo'nalishlar (nominatsiya) bo'yicha o'tkaziladi:

a) **cholg'ular** (yakka cholg'u ijrochiligi):

g'ijjak;

nay;

qo'shnay;

chang;

qonun;

qashqar rubob;

ud;

doira;

dutor;

tanbur.

b) **sozandalar ansambli.**

v) **yakka xonanda** (o'g'il bola ovoz).

g) **yakka xonanda** (qiz bola ovoz).

d) **xonandalar ansambli.**

Jami: **14** nominatsiya.

11. Tanlovlarning ijro dasturi va ijro etiladigan asarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

### **5-bob. Tanlovlar ishtirokchilarini baholash**

12. Tanlovlarning respublika bosqichi bir bosqichda o'tkazilib, ishtirokchilarning ijrolari hakamlar hay'atining har bir a'zosi tomonidan alohida tarzda 25 ballik tizimda baholanadi.

13. Umumiy balli eng ko'p bo'lgan ishtirokchilar orasidan hakamlar hay'ati qaroriga asosan har bir nominatsiya bo'yicha Gran-pri, 1, 2 va 3-o'rin sovrindorlari belgilanadi.

14. Tanlovlarning yakuniy natijalari hakamlar hay'atining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

15. Hakamlar hay'atining qarori qat'iy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

16. Tanlovlarning Gran-pri hamda 1-o'rin sovrindorlariga Xalqaro maqom san'ati anjumani tanlovida ishtirok etish huquqi beriladi.

17. Tanlovlarning 4 nominatsiyasi bo'yicha (sozandalar ansambli, yakka xonanda (o'g'il bola ovoz), yakka xonanda (qiz bola ovoz), xonandalar ansambli) g'oliblari (Gran-pri va 1-o'rinlar) respublika saralash tingloviga tavsiya etiladi.

#### **6-bob. Tanlovlarni moliyalashtirish va ishtirokchilarni rag'batlantirish**

18. Ishtirokchilarga tanlovlarning respublika (yakuniy) bosqichi yo'l va yo'lda ovqatlanish, turar-joy xarajatlari ta'lim muassasalari va xodimlarning asosiy ish joyidan qoplanadi.

19. Tanlovlarning respublika bosqichini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi xarajatlar uchun O'zbek milliy maqom san'ati markazi tavsiyasiga binoan viloyat hokimligi hamda Madaniyat vazirligi tomonidan mablag' ajratiladi:

g'oliblar uchun pul mukofoti (mahalliy hokimyat bilan hamkorlikda);

ramkali diplomlar, sertifikatlar;

sovrindorlar uchun beriladigan guldastalar;

bosmaxona va kanselyariya tovarlari;

hakamlar hay'ati a'zolarining ish haqi, mehmonxona, yo'l xarajatlari (mahalliy hokimyat bilan hamkorlikda);

tanlovlar o'tadigan sahnalarni bezash xarajatlari (mahalliy hokimyat bilan hamkorlikda);

suxandonlar uchun ish haqi;

avtobus ijarasi xarajatlari (mahalliy hokimyat bilan hamkorlikda);

tanlovlar jarayonini video va foto tasvirga olish xarajatlari.

20. Tanlovlar sovrindorlari, ularning o'qituvchi va jo'rnazozlari Madaniyat vazirligi hamda viloyatlar hokimliklari tomonidan diplomlar, sertifikatlar hamda pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

#### **7-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvi**

21. Chaqiriq quyidagi prinsiplar asosida o'tkaziladi:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.

21.2 Shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarish, shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik qat'iy belgilanadi.

### **8-bob. Yakuniy qoida**

22. Tanlovlarni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.